



Научно-образовательный электронный журнал

**ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА
В XXI ВЕКЕ**

**Выпуск №34 (том 5)
(январь, 2023)**



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

ISSN 2782-4365

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №34 (том 5) (январь,
2023). Дата выхода в свет: 03.02.2023.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

THE IMPORTANCE OF BIOPHYSICAL INTERVENTION AND AIR TEMPERATURE IN IMPROVING COCK QUALITY AND PRODUCTIVITY Aliboyev Makhammadillo Akbaralievich, Jumanova Maqsudahon Sattarovna	139
USAGE OF STYLISTIC DEVICES IN THE PROCESS OF LANGUAGE ACQUISITION Bozorova Dilafza	151
TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. MUAMMO VA YECHIMLAR Hamroyeva Xolida Faxriddinovna	155
QORAQALPOQLARNING YASHASH HUDUDLARI (XVII-XIX ASRLAR) Berdaq Qurbanboyev	159
KORRUPSIYA - BARQAROR TARAQQIYOT KUSHANDASI Irgashova Dildora Ma'murjon qizi	163
БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ Н.Пустамбекова	167
RAQOBATDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI VAHOLASH Salimova Malika Rashidbekovna, Eshquvatova Gulnoza Olimjon qizi	175
ADABIYOT DARSLARIDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH Mardonov Sherzod Baxriddinovich	180
MATEMATIKA FANINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O`QITISH Abduraxmonova Maftuna	184
BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASH JARAYONI Mirzaraimova Sadoqat Madaminovna	189
O'SMIRLIK DAVRIDAGI YOSHLARDA IJTIMOIIY INTELLEKT MUAMMOSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Murodullayeva Dilbar Muhammadiyevna	195
MUSIQA NAZARIYASI FANIDAN ZAMONAVIY PED.TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLASH Ruzieva E`zoza Sadikovna	201
O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARINING XALQ CHOLG'ULARI UCHUN ASARLAR YARATISH TENDENSIYALARI Nabiyeva Maloxat Abdumajidovna	206
KASB - KELAJAK POYDEVORI Shokirova Marg'uba Qosimovna	213

ФИО авторов: *Salimova Malika Rashidbekovna*

Toshkent tibbiyot akademiyasi assistanti

Eshquvatova Gulnoza Olimjon qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi

Название публикации: «**RAQOBATDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASH**»

ANNOTATSIYA

Maqolada oliy ta`lim muassasalari boshqaruv faoliyati samaradorligi, boshqaruv faoliyati samaradorligi, boshqaruv tizimi va boshqaruv jarayoni samaradorligining o`zaro ta`siri va omillari, ta`lim muassasasi samaradorligini baholash ko`rsatgichlari, kadrlar tayyorlovchi kafedralarning ustuvorliklari masalalari yoritilgan.

Kalit so`zlar: raqobatdosh, innovatsion, boshqaruv jarayoni, boshqaruv samaradorligi, raqobatdosh kadrlar, baholash usullari, akkreditatsiya, muqobillik darajasi.

Zamon rivojlanishi natijasida kundalik hayotimizga turli xil innovatsion texnologiyalar hamda gadjetlar kirib keldi va ular yildan-yilga mukammallashib bormoqda. Bular inson hayoti mazmuniga aylanib qolganligi, ularsiz bir kunini ham tasavvur qila olmaydiganlarning mavjudligini ham inkor qilib bo`lmaydi. Albatta, ta`lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish, oliy ta`lim sifatini oshirishga, qiziqarli, rang-barang qilishiga allaqachon amin bo`lganmiz va hozirda har bir oliy ta`lim muassasalari ulardan foydalanadi

O`zbekiston respublikasida "Ta`lim to`g`risida"gi qonunlar va kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi bilan amalga oshirilayotgan keng ko`lamli islohatlarda yoshlarning faol ishtirokini ta`minlash, yuksak ma`naviyatli, mustaqil va erkin fikirlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o`zlashtirgan xar tomonlama sog`lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish uchun zamin yaratadi. Iqtisodiyotni innovatsion talablar asosida taraqqiy ettirishda axolining bilimlilik darajasini oshirish, ishlab chiqarishning

intelektual salohiyati, chet el investitsiyalari ko`lamini kengaytirish, tadbirkorlik kichik va xususiy biznesni rivojlantirish, o`z navbatida, yangi iqtisodiy yo`nalishdagi kasbxunar va mutaxassisliklar bo`yicha kadrlar, shu jumladan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalari hisoblanadi. Oliy ta`lim tizimida ta`lim standartlariga mos keluvchi mutaxasislarni tayyorlash va ilmiy salohiyatini ko`tarish darajasi bo`yicha mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlarning tajribasini o`rganib, respublikamiz davlat ta`lim standartlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy tadqiqotlar olib boorish, fan, ta`lim, medetsinava ishlab chiqarish xamkorligini yanada rivojlantirish asosida ularning sifat darajasini ko`tarish va samaradorligini ta`minlash lozim. Oliy ta`lim muassasalarida medetsina sohasida boshqaruv jarayoni samaradorligini erishilgan amaliy natijalarni tahlil qilish asosida baxolash, yani quyidagi muammolarni hal etish orqali ularni takomillashtirish lozim bo`ladi: Muassasadagi boshqaruv jarayoni va amaliy faoliyat natijalari o`rtasidagi bog`liqlik jihatlarini aniqlash;

Oliy ta`lim muassasasi tashkiliy tuzilmasidagi kafedralar misolida faoliyat natijalariga ko`ra, boshqaruv jarayoni samaradorligini baholashni amalga oshirish, bunda boshqaruv jarayoni bilan bog`liq me`zonlarni ajratish, boshqaruv jarayoni samaradorligini baxolash yo`llari amaliy faoliyat natijalarini baxolashning ko`p mezonli va kompleks baxolash usullari qo`llanganda boshqaruv jarayoni samaradorligini baholash ishonchli natijalarni beradi.

Boshqaruv samaradorligi tushunchasi boshqaruv tizimi va boshqaruv jarayoni samaradorligining o`zaro ta`siri natijasida yuzaga keladi. Shu o`rinda boshqaruv tizimi samaradorligi va boshqaruv jarayoni samaradorligi tushunchalarining o`zaro mushtarak va farqli jihatlariga e`tibor qaratamiz. Boshqaruv jarayoni samaradorligi ham boshqaruv samaradorligining xususiy xoli bo`lib, uning subyektning boshqariluvchi obyektga ta`sir ko`rsatish natijasini ifodalaydi. Uni miqdor va sifat jihatidan baholash mumkin."Samaradorlik " tushunchasi menejment va boshqaruv fanlarida turli baxs va munozaralarga sabab bo`lib keladi. Samaradorlikning umumiy

nazariyasi mavjud bo`lmaganligi bois ushbu yo`nalishdagi barcha urinishlar xozirgacha kutilgan natijaga olib kelmadi. Bunday universal omillar qatorida quyidagilarni sanab o`tish mumkin:

Qo`yilgan maqsadlarning sifati, maqsadlarni real amalga oshirish imkoniyati, ya`ni, ularning qo`yilgan maqsadga erishish vositalari bilan muvofiq kelishi;

Joriy xolatni to`g`ri baxolash;

Muassasa raxbari va xodimlarni qo`yilgan maqsadlar yo`lida motivatsiyalash;

Muassasa raxbaring salohiyati va shaxsiy sifatleri;

Qo`yilgan maqsadlarga erishish uchun ajratilgan resurslarning miqdori va sifati;

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda davlat va jamiyat xamda kollegial boshqaruv organlarining ishtiroki.

SHuningdek, ta`lim muassasalari boshqaruv tizimida boshqaruv jarayoni to`g`ri yo`lga qo`yilishi, uning samaradorligi tushunchalarini aniq ajratilishi, uning mazmuni va mohiyati ochib berilishi, ta`lim muassasalarida ierarhiyalar tahlili usuli asosidagi kafedralar reytingi modeli ishlab chiqilishi, uning boshqaruv jarayoni samaradorligini baxolash usullariga asoslanishi ta`lim muassasasi boshqaruv samaradorligini baxolashda yuqori natijalarga erishishda ta`sir etuvchi omillar xisoblanadi.

Kamchiliklar va muammolar

Kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o`zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o`quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o`quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta`lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o`rtasida puxta o`zaro hamkorlik va o`zaro foydali integratsiyaning yo`qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi. Ilmiy muassasalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy institutlar kadrlarni tayyorlash jarayoniga yetarli darajada qo`shilganlari yo`q. Davlat ta`lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, ta`lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o`tkazish

vazifalari belgilab olinmagan. O'quvchilarning bilim darajasini baholash tizimi obyektivlik va tezkorlikni ta'minlamaydi. O'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasidagi jami tarbiyachi va pedagoglarning atigi 20 foizi oliy ma'lumotlidir. Maktablarning o'qituvchilar bilan ta'minlanganligi o'rtacha 93 foizni tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich ayrim viloyatlarda 77-80 foizdan, muayyan fanlar bo'yicha esa 50 foizdan oshmaydi.

Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning o'rtacha yoshi "ulg'ayib" bormoqda. Respublika oliy o'quv yurtlarida 40 yoshga to'lmagan fan doktorlari jami fan doktorlarining 0,9 foizini, 50 va undan katta yoshdagilari esa 79 foizini tashkil etadi. Fan doktorlari ilmiy darajasiga tasdiqlanganlar o'rtacha 50, fan nomzodlari esa 36 yoshdadir.

Xulosa o'rnida shuni ham alohida ta'kidlash joizki, erishilgan natijalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqobatdosh milliy iqtisodiyotni barpo etish strategiyalari, talablariga hozirda to'la mos keladi, deb bo'lmaydi. Buni boshqacha qilib aytganda, hozirgi kungacha amal qilib kelgan iqtisodiy ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan iqtisodiy jarayonlar sharoitida davlat va jamiyat taraqqiyotining tub strategik maqsadlariga erishish va shulardan kelib chiqqan vazifalarni bajarish uchun yetarli sifat parametrlariga ega, deb bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati davlat raxbarining 2019 –yil ucun mo'ljallangan eng muxim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi//www.lex.uz,2019-yil 28-dekabr.

2.Ergashev A.O.Ta'lim tizimining iqtisodiy boshqaruv asoslarini takomillashtirish (o'rta maxsus,kasb-xunar ta'limi tizimi misolida).IQT.f.n. ...diss, avtoref.

3.Navruz-zoda B.N. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida sifat ta'minoti.-T:Xarizma design,2008.-245b

4. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi //Karimov A.A., Imomov E.Z. va boshqalar.–T.: SHarq

5. ex.uz/docs/-48401